

## XXI ASRDA SHARQ MUSIQA MADANIYATI



*Shaxobiddinova Aziza Shavkatjon qizi*

*Andijon Davlat Pedagogika instituti*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada XXI asr Sharq musiqa madaniyatining taraqqiyoti, uning globallashuv sharoitida tutgan o'rni hamda an'anaviy va zamonaviy musiqiy oqimlar o'rtasidagi o'zaro ta'siri tahlil qilinadi. Tadqiqotda tarixiy-komparativ va tizimli yondashuv metodlari asosida Sharq musiqasining estetik, sotsiomadaniy va texnologik jihatlari ilmiy asosda o'rganiladi.

**Kalit so'zlar.** Sharq musiqasi, musiqiy identitet, raqamli transformatsiya, sotsiomadaniy omillar, zamonaviy kompozitorlar, estetik tafakkur.

**Аннотация.** В данной статье анализируется развитие музыкальной культуры Востока в XXI веке, её роль в условиях глобализации, а также взаимодействие между традиционными и современными музыкальными течениями. Исследование основано на историко-сравнительном и системном подходах к изучению эстетических, социокультурных и технологических аспектов восточной музыки на научной основе.

**Ключевые слова.** Восточная музыка, музыкальная идентичность, цифровая трансформация, социокультурные факторы, современные композиторы, эстетическое мышление.

**Abstract.** This article analyzes the development of Eastern musical culture in the 21st century, its role in the context of globalization, and the interaction between traditional and modern musical trends. The research is based on historical-comparative and systematic approaches to study the aesthetic, socio-cultural, and technological aspects of Eastern music on a scientific basis.

**Keywords.** Eastern music, musical identity, digital transformation, socio-cultural factors, contemporary composers, aesthetic thinking.

**Kirish.** Sharq sivilizatsiyasi qadimdan musiqiy tafakkur va badiiy-estetik madaniyatning yuksak namunalari bilan ajralib turgan mintaqalardan biri



hisoblanadi. Jumladan, O'rta Osiyo, Hindiston, Eron va Xitoyda shakllangan musiqa maktablari nafaqat xalq og'zaki ijodi va diniy-marosimiy an'analar bilan uyg'unlashgan, balki falsafiy tafakkur bilan ham bevosita bog'liq bo'lgan. Ibn Sino, Forobiy va Al-Xorazmiy kabi allomalar musiqa nazariyasini ilmiy asosda tahlil qilib, uni matematik va fiziologik qonuniyatlar bilan bog'laganlar. Sharq musiqasida maqom tizimlari, ritmik murakkablik, improvizatsion ijro va ruhiy-ma'naviy teranlik ustuvorlik qiladi.

XXI asrga kelib, bu boy musiqiy meros globallashuv, raqamli madaniyat, axborot texnologiyalari va transmilliy madaniy oqimlar fonida yangi shakllanan bosqichiga o'tdi. Endilikda Sharq musiqasi nafaqat an'anaviylikni saqlagan holda rivojlanmoqda, balki zamonaviy musiqiy janrlar, elektron platformalar va xalqaro sahnalar bilan integratsiyalashmoqda. Bu esa musiqiy identitet va madaniy merosni qayta talqin qilish, ularni bugungi auditoriya ehtiyojlariga moslashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Ushbu maqolada XXI asrda Sharq musiqasi madaniyatining zamonaviy sharoitdagi transformatsiyasi, yangi avlod ijodkorlarining yondashuvi, musiqiy merosning innovatsion shakllarda davom ettirilishi hamda sotsiomadaniy omillarning roliga ilmiy asosda baho beriladi. Tahlil jarayonida tarixiy-komparativ va tizimli yondashuv metodlaridan foydalanilgan.

**Asosiy qism.** Sharq musiqa madaniyati bu faqat estetik-intonatsion tizim emas, balki tamadduniy dunyoqarashni mujassamlashtiruvchi, sotsiokulturalniy xotira shakli sifatida shakllangan betakror madaniy hodisadir. U ko'p asrlar davomida nafaqat musiqiy ifoda vositasi, balki falsafiy-fikriy kontseptualizatsiya obyekti sifatida ham rivojlanib kelgan. Ayniqsa, Forobiy, Ibn Sino va Bahouddin Naqshbandiy singari Sharq mutafakkirlarining musiqiy tafakkur haqidagi qarashlari musiqaning gnoseologik va axloqiy-mistik funksiyalarini nazariy asosda ochib bergan. XXI asrda ushbu musiqiy meros tubdan yangi bosqichga ko'tarilib, zamonaviy kommunikatsiya texnologiyalari, globallashuv va transmilliy madaniy almashinuv kontekstida qayta talqin qilinmoqda. Sharq musiqasi endilikda nafaqat avvalgi shaklida saqlanib qolmoqda, balki yangi



ifodaviy ko‘rinishlar, xususan, elektron maqom, eksperimental folk-trance janrlarida ham namoyon bo‘lmoqda. Bu esa an'anaviylik va innovatsiyaning murakkab dialektikasini yuzaga keltiradi.

Musiqiy merosning XXI asrdagi bu transformatsiyasi, birinchi navbatda, madaniy identitet va milliy xotira kategoriylarining qayta shakllanishi bilan bevosita bog‘liqdir. Madaniy identitet masalasi hozirgi postmodern madaniyatda fragmentatsiyalashgan, ko‘p ovozli va kontekstga bog‘liq tus olgan. Bunday sharoitda Sharq musiqasi o‘zining arxaik semantik qatlamlarini zamonaviy estetik va texnologik kodlar bilan uyg‘unlashtirish orqali, universal kommunikatsiya vositasiga aylanishni boshladı<sup>1</sup>.

Tadqiqot davomida Sharq musiqasining zamonaviy dinamikasi tarixiy-komparativ, diskursiv-semiotik va intertekstual madaniy yondashuvlar asosida tahlil qilindi. Tarixiy-komparativ metod orqali musiqa tizimlarining o‘zaro qiyosiy tahlili olib borildi; semiotik yondashuv orqali esa maqom va raqs ritmlaridagi ramziy strukturalar tadqiq qilindi. Shu bilan birga, musiqiy ifoda bilan bog‘liq bo‘lgan kulturniy kodlarning zamonaviy ommaviy madaniyat bilan sintez jarayoni o‘rganildi. Masalan, O‘zbekiston maqom san’atida kuzatilayotgan janlararo integratsiya ya’ni maqom va estrada, maqom va rap yoki maqom va ambient janrlari o‘rtasidagi sintezlar madaniy suverenitet va kreativ ekspressiyaning o‘ziga xos ko‘rinishidir. Shu jihatdan qaralganda, XXI asrda Sharq musiqasi o‘zining zamonaviy shaklida nafaqat madaniy meros sifatida, balki madaniy rezistensiya va ekspansiyaning vositasi sifatida ham namoyon bo‘lmoqda. Yana bir muhim omil shuki, bugungi kunda Sharq musiqasi xalqaro musiqiy muhitda faqat folklorik namunalar sifatida emas, balki ilmiy tadqiqot obyekti sifatida ham e’tirof etilmoqda. Bu musiqiy tizimlarning kognitiv, neyropsixologik va sotsiologik aspektlari zamonaviy fanlararo tadqiqtlarda alohida e’tibor markazida turibdi. Shu asosda aytish mumkinki, XXI asr Sharq musiqa madaniyatining faqat davom ettirish davri emas, balki uni chuqr reflektiv, gibrild va global kontekstda qayta qurish bosqichidir. Bu jarayon, o‘z

<sup>1</sup> Qurbonov,R.Y. Musiqa psixologiyasi asoslari., Toshkent:Iqbol,2007,228 –bet.



navbatida, musiqaning identitet shakllantiruvchi, madaniyatlararo ko‘prik o‘rnatuvchi va zamonaviy sivilizatsiya bilan dialogga kirishuvchi qudratli vosita sifatida namoyon bo‘lishini ta’minlamoqda. Shuningdek, Sharq musiqa madaniyati XXI asrda o‘zining kognitiv-falsafiy funksiyalari nuqtayi nazaridan ham qayta baholanmoqda. Ilmiy doiralarda musiqaning nafaqat estetik idrokni shakllantiruvchi vosita, balki inson ongining ichki tuzilmalari bilan uzviy bog‘liq gnoseologik fenomen sifatidagi mohiyati tobora ko‘proq tadqiq qilinmoqda. Ayniqsa, maqom va raga kabi an’anaviy musiqiy shakllarda mavjud bo‘lgan modal paradigmalarning kognitiv ta’siri ya’ni ritmik tsikliklik va melodik intonatsiyalarning meditatsion tafakkur bilan bog‘liqligi zamonaviy neyromusiqashunoslik (neuro-musicology) doirasida qiziqish uyg‘otmoqda.

Bugungi musiqiy tafakkurda intermadaniylik (interculturality) tendensiyasi sezilarli darajada kuchaymoqda. Shu nuqtai nazardan qaralganda, Sharq musiqasi Yevropa va Amerika musiqiy maktablari bilan o‘zaro munosabatga kirishib, transkultural gibrilik holatini yuzaga keltirmoqda. Bunday holatlarda musiqiy semantik strukturalar bir-biriga moslashadi, ularning arxaik ma’nolari qayta kodlanadi, va natijada yangi musiqa arxitekturasi vujudga keladi. Bu holat zamonaviy postkolonial nazariyalar doirasida madaniy “rezonans” va “reappropriasiya” (qayta o‘zlashtirish) terminlari bilan izohlanadi<sup>2</sup>. Masalan, o‘zbek bastakori Tolib Sodiqov tomonidan maqom asosida yaratilgan simfonik asarlar, yoki Eron bastakori Hossein Alizadehning transmodal asarlari – an’anaviy Sharq musiqiy qadriyatlarining zamonaviy orkestrlashuv bilan uyg‘unlashgan shakllarini ifodalaydi. Bunday musiqalar Sharqona mushohada, ya’ni fahm va huzurni uyg‘otish xususiyatiga ega bo‘lib, tinglovchi bilan faqat audial emas, balki ontologik muloqotni ham yuzaga keltiradi.

Musiqaning bunday qamrovli transformatsiyasi uni oddiy san’at sohasi doirasidan olib chiqib, uni madaniy geosiyosiy vositaga aylantirgan. Bugungi kunda Sharq musiqasi orqali o‘z milliy identitetini xalqaro maydonda tasdiqlashga intilayotgan davlatlar – O‘zbekiston, Hindiston, Turkiya, Xitoy –

<sup>2</sup> Turg‘unov, H.T. San’at falsafasi:mushohada va tahlillar. Toshkent:Fan,2005, 203-bet.



musiqiy merosni “yumshoq kuch” siyosatining ajralmas tarkibiy qismiga aylantirishmoqda. Jumladan, Turk dunyosi musiqiy festivallari, maqom san'ati xalqaro biennalelari va Hindistondagi klassik musiqa konsertlari madaniy diplomatiyaning amaliy timsollaridir. XXI asrda Sharq musiqasi ta'lif tizimi orqali ham yangicha shakllanmoqda.

An'anaviy ustoz-shogird tizimi o'rniga, zamonaviy konservatoriylar, masofaviy o'quv platformalari va elektron notatsiya dasturlari kirib kelgan. Bu esa musiqiy avlodlar o'rtasidagi bilish va ifoda uzlucksizligini ta'minlash bilan birga, musiqiy tafakkurning dizitsiplinlararo (interdisciplinary) rivojlanishiga ham turki bermoqda. Shunday qilib, musiqiy meros nafaqat saqlanmoqda, balki zamonaviy sivilizatsiyaga integratsiyalashmoqda. Sharq musiqasining XXI asrdagi taraqqiyoti – bu oddiy evolyutsiya emas, balki madaniy-ontologik inversiyadir, ya'ni musiqaning jamiyatdagi funksiyasi, uning semantik yuki va auditoriya bilan munosabatlari tubdan o'zgarayotgan davrdir. Endilikda musiqa bu nafaqat eshitish, balki anglash, tafakkur qilish, madaniyat bilan til topish vositasidir. Sharq musiqa madaniyati esa bu jarayonda nafaqat kuzatuvchi, balki faol ishtirokchi, shakllantiruvchi va qayta yaratuvchi kuch sifatida maydonga chiqmoqda.

**Xulosa.** Sharq musiqa madaniyati XXI asrda o'zining tarixiy ildizlariga sodiq qolgan holda, zamonaviy global kontekstda shakllanayotgan ko'p qatlamlili, gibridda va dinamik tizim sifatida namoyon bo'lmoqda. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, ushbu madaniyat shaklining taraqqiyoti bir vaqtning o'zida uch asosiy vektor: madaniy xotirani tiklash, estetik yangilanish va global kommunikatsiyaga moslashish jarayonlarini qamrab oladi. Bu esa Sharq musiqasining faqat nostaljik meros emas, balki kelajak sari yo'naltirilgan madaniy ekspansiya vositasi sifatida ham amal qilishini ta'minlaydi. Zamonaviy davrda an'anaviy musiqiy shakllarning saqlanishi va transformatsiyasi bir necha omillarga texnologik rivojlanish, globallashuv jarayonlari, siyosiy-madaniy siyosat, hamda ijodiy tafakkurning kengayish darajasiga bevosita bog'liqdir. Shu jihatdan olganda, maqom, raga, dastgoh, va boshqa musiqiy tizimlarning XXI



asrdagi yashash shakllari ularning formal hayotiyligidan ko‘ra ko‘proq semantik, gnoseologik va estetik kompetensiyalariga tayanadi. Boshqacha aytganda, musiqa zamonaviy inson uchun nafaqat eshitiladigan tovushlar yig‘indisi, balki ma’naviy identifikatsiya, falsafiy mulohaza va madaniy o‘zlikni anglash vositasiga aylangan.Maqolada qo‘llanilgan tarixiy-komparativ, diskursiv-semiotik va intermadaniy tahlil metodlari asosida xulosa qilish mumkinki, Sharq musiqa madaniyati XXI asrda o‘ziga xos transkultural “madaniy kod”ni yaratmoqda. Ushbu kod orqali Sharq musiqasi jahon auditoriyasi bilan muloqotga kirishmoqda va o‘zining estetik, ruhiy va ontologik qatlamlarini universal musiqiy tilga tarjima qilmoqda.Sharq musiqasining xalqaro musiqashunoslik, neyromusiqashunoslik, madaniyatshunoslik va estetik nazariya doiralarida tobora ko‘proq ilmiy qiziqish uyg‘otayotgani uning zamonaviy ilmiy va amaliy ahamiyatini yanada oshirmoqda. Shu bois, bu madaniy hodisani faqat folklorik yoki tarixiy fenomen sifatida emas, balki ko‘p fanli (multidisiplinar) tadqiqot obyekti sifatida ham qayta konseptualizatsiya qilish zarurati mavjud. Sharq musiqa madaniyati XXI asrda o‘zining regenerativ salohiyati va global idrokga moslashuvchanligi orqali zamonaviy sivilizatsiyalar orasida madaniyatlararo dialogni chuqurlashtiruvchi va ruhiy uyg‘unlikni ta’minlovchi vosita sifatida muhim epistemologik rol o‘ynamoqda.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Alimova, D.M. Sharq musiqa merosi va zamonaviy tafakkur., Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi nashriyoti, 2015,198 b.
2. Berdiev, S.H. O‘zbekiston musiqa san’ati tarixidan lavhalar., Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2008,276 b.
3. Botirov, A.N. Madaniyat va san’at falsafasi., Toshkent: Fan va texnologiya, 2012, 232 b.
4. G‘aniyeva, Z.A. Sharq falsafasi va musiqa tafakkuri., Toshkent: Ma’naviyat, 2010, 212 b.
5. Jo‘rayev, I.S. Maqom san’ati va estetik tafakkur., Buxoro: “Buxoro” nashriyoti, 2009,185 b.